YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA MA'NAVIYATINI OSHIRISHDA MAQOM SAN'ATI : AN'ANAVIYLIKDAN ZAMONAVIYLIKKACHA.

Yunus Rajabiy nomidagi O'z.MMSI "Maqom xonandaligi" kafedrasi professori ***Axmedov Elmurod G'anisherovich***
axmedovelmurod@mail.ru

Annotatsiya:*Mazkur maqolada o'zbek musiqasining rivojlanishi, an'anaviy maqom san'ati va uning yosh ijodkorlar tomonidan yangilanishi, shuningdek, zamonaviy musiqiy ijodning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada musiqaning texnik va ma'naviy asoslarini yangilash, an'anaviy musiqiy merosni zamon talablariga moslashtirish va yosh ijodkorlarning musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishi haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *o'zbek musiqasi, maqom, musiqiy meros, yosh ijodkorlar, ijrochilik, musiqaning integratsiyasi, musiqiy ta'lim, falsafiy musiqiy asarlar.*

Аннотация:*В данной статье рассматривается развитие узбекской музыки, традиционное искусство макам и его обновление современными исполнителями, а также особенности современного музыкального творчества. В статье говорится о необходимости обновления как технической, так и духовной основы музыки, адаптации традиционного музыкального наследия к современным требованиям и растущем интересе молодых исполнителей к искусству.*

Ключевые слова: *узбекская музыка, макам, музыкальное наследие, молодые исполнители, исполнительство, интеграция музыки, музыкальное образование, философские музыкальные произведения.*

Abstract: *This article discusses the development of Uzbek music, the traditional maqom art, and its renewal by contemporary performers, as well as the specific features of modern musical creativity. It addresses the need to update both the technical and spiritual foundations of music, adapting the traditional musical heritage to contemporary demands, and the growing interest of young performers in this art.*

Keywords:*Uzbek music, maqom, musical heritage, young performers, performance, music integration, music education, philosophical musical works.*

KIRISH

Milliy musiqa san'ati va madaniyati har doim xalqimiz turmush tarzining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Binobarin, uni yangi bosqichga olib chiqish va rivojlantirish uchun bugungi kunda keng imkoniyatlar ochilmoqda. Avvalo, o'tmishdagi ulug' ustozlarning ijodi va betakror ijrochilik mahoratining yanada chuqurroq o'rganilishi va targ'ib

etilishi zarur. Shu bilan birga, musiqiy san’atning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan holda, uni zamonaviy talablarga mos ravishda yangilash maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasining madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qarorlari va farmonlari bu yo‘ldagi muhim qadamlar hisoblanadi. Masalan, 2018-yilda qabul qilingan bir qancha hujjatlar, jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va san’at sohasi innovatsion rivojlantirish to‘g‘risida”gi qaror va “Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi”ni tasdiqlash bo‘yicha qabul qilingan qarorlar, bu sohada yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, 2020-yilgi farmonlar va 2021-yil va 2022-yilda qabul qilingan hujjatlar madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘zda tutmoqda.

2023-yilda esa, "O‘zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida madaniyat va san’at sohasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan islohotlar aniq belgilandi. Bularning barchasi sohaga oid muhim masalalarni hal qilish, xalqimizning boy madaniy merosini saqlab qolish va uni dunyo miqyosida tanitish yo‘lidagi amalga oshirilgan va amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlarning muhim qismi hisoblanadi.

Maqom so‘zi turli xalqlarning musiqiy madaniyatida o‘ziga xos o‘rin tutadi va uning ma’nosi, musiqiy tizimi har bir xalqda farq qiladi. Masalan, o‘zbek va tojik xalqlarida maqom, uyg‘urlarda muqom, Ozarbayjonda mug‘om, arablar va turklarda maqom, Eron musiqasida dastgoh, Hind musiqasida esa raga deb ataladi. Ushbu turli nomlar bir-biriga yaqin bo‘lishi bilan birga, ularning har biri o‘ziga xos musiqiy tizim va ijro usuliga ega. Bularning barchasi musiqiy san’atning o‘ziga xos qirralarini va xalqning madaniy, estetik qarashlarini aks ettiradi. Maqom tizimining ildizlari esa qadimiy tarixga borib taqaladi. Eng qadimiy ma’lumotlarga ko‘ra, maqom tizimi VII asrda yashagan mashhur musiqachi Borbad Marvaziy tomonidan shakllantirilgan deb hisoblanadi.

Maqom so‘zi arabchada "makon" - joy, o‘rin ma’nosini anglatadi va dastlab, bu atama musiqada torli cholg‘ularda tovush balandligini hosil qilish uchun ishlatilgan parda yoki joyni ifodalashda ishlatilgan. Vaqt o‘tishi bilan, maqom musiqaning nazariyasi rivojlanib, yangi musiqiy shakllar va mazmunlar paydo bo‘ldi[1]. Musiqaning muhim tushunchalaridan biriga aylangan maqom, musiqiy jarayonlarning tashkil etilishiga asos bo‘lib, o‘zida bir qator har xil musiqiy ifodalar va ijro usullarini mujassam etadi. Sharq musiqasining an’analarida maqomning roli o‘ta muhim, chunki bu tizim faqatgina musiqa asarlarini tartibga solibgina qolmay, balki uning ijro texnikasini, ohanglarini va ruhiy mazmunini ham shakllantiradi.

[1] Rajabov Y. Shashmaqom, (I-VI); O‘bek xalq muzikasi.(I-V) Tos’hkent. 1965

Maqom tizimining o‘n ikki sho‘basi haqida musiqiy risolalarda keltirilgan fikrlar, Shashmaqom yo‘llari bilan ham mos keladi. Shashmaqom — o‘n ikki maqom tizimining sho‘ba yo‘llarining birikmasi bo‘lib, bu tizimda har bir maqomning ruhiy ta’siri o‘ziga xos va turlicha bo‘lishi tabiiydir. Maqomlar musiqaning aniq bir ruhiy kayfiyatni ifodalash uchun ishlatiladi. Har bir maqomda kuy mavzusi, lad qiyofasi, doira usuli turlicha bo‘lishi mumkin, bu esa har bir maqomning o‘ziga xos ifodaviy kuchini shakllantiradi. Masalan, o‘n ikki maqomdagi Ushshoq maqomi, Shashmaqomdagi Rost maqomining sho‘basi sifatida ishlatilgan. Ushshoq maqomi insonning shijoat va hayotiy energiya tuyg‘ularini uyg‘otishga yordam beradigan kuylari bilan ajralib turadi, rost maqomi esa ko‘proq ijobiy, yoqimli va ko‘targan kayfiyatni yaratadi.

Ushbu musiqiy yo‘llarning barchasida o‘xshash nomlar bilan atalgan kuylar mavjud bo‘lsa-da, ularning har biri turli lad asoslariga va musiqiy ohang mavzulariga ega. Biroq, ularning doira usullari bir xil bo‘lib, bu esa turli maqomlar o‘rtasidagi musiqiy bog‘lanishni ta’minlaydi. Masalan, maqomlarning tasnif, tarje’, gardun va muxammas kabi nomlar bilan atalishi, dastlabki musiqiy usul birligidan kelib chiqadi. Har bir maqom o‘ziga xos mavzularni ifodalagan holda, musiqaning strukturasini tashkil etadi. Bu maqomlar o‘zlarining ijro usullari va musiqiy ob’ektlari orqali xalqlar orasidagi musiqiy aloqalarni o‘zaro bog‘lashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, maqom tizimi nafaqat musiqaning texnik jihatlariga, balki milliy madaniyat va estetik qiyofani ifodalashga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI Maqomlar mukammal va to‘liq ijro etiladigan musiqiy asarlardir, bu jarayonda ularning har bir qismi o‘zining o‘zgacha roli bilan ijro etiladi. Eng avvalo, maqomning cholg‘u yo‘llari birin-ketin ijro qilinadi, so‘ngra ashula bo‘limlariga o‘tiladi. Cholgu bo‘limlaridagi kuy yo‘llarining har biri mustaqil cholg‘u qismlari sifatida ko‘riladi va o‘zlariga tegishli maqomlar nomi bilan ifodalanadi. Masalan, Tasnifi Buzruk, Tarjei Buzruk, Saqili Navo, Samoyi Dugoh, Muxammási Iroq, Garduni Segoh kabi ifodalar har bir kuy yo‘lining o‘ziga xosligini va muayyan maqomga mansubligini ko‘rsatadi. Shashmaqomga xos bo‘lgan ushbu cholg‘u yo‘llari esa, ohang tuzilishi jihatidan murakkab va puxta ishlab chiqilgan bo‘lib, bu ularni boshqa musiqiy tizimlardan ajratib turadi. Har bir maqomning kuy va ashula yo‘llari faqatgina o‘sha maqomning lad asosiga va badiiy estetik tasiriga bog‘lanib qolmaydi, balki vaqt o‘tishi bilan, musiqaning turli qismlarida ularning o‘ziga xos xususiyatlari boyib boradi va rivojlanadi.

Shashmaqomda mavjud bo‘lgan cholg‘u yo‘llarining barchasi uchun yana bir xos xususiyat shundaki, ularning asosiy qismlari, ya'ni "xona" va "bozgo‘y" deb ataladigan kuy qismlaridan tashkil topgan. Bu qismlar o‘z navbatida bir yoki bir nechta kuy jumlalaridan iborat bo‘lishi mumkin. "Xona" so‘zi arabcha "uy" ma'nosini anglatadi, lekin musiqiy kontekstdagi ma'nosi ancha chuqurdir. Xona — bu kuyning

tuzilishini tashkil etadigan tovushlar va uning boshqa xususiyatlari joylashgan joy bo‘lib, uning ichida kuy harakatining boshlanishi, rivojlanishi va yakunlanishi o‘rtasidagi o‘zgarishlar, xususan, uning mazmunini boyitish va tugatish jarayoni amalga oshiriladi.

Shashmaqomning cholg‘u yo‘llarida xonalar musiqaning o‘zgaruvchan qismlari sifatida ko‘riladi, ular kuyning umumiy tuzilishini o‘zgartiradi va uning mazmunini kengaytiradi. Xona kuylari o‘z navbatida kuyning boshlang‘ich nuqtasidan yuksak avjga olib borib, keyin asta-sekin boshlang‘ich nuqtaga qaytadi, bu musiqaning mukammal yakunlanishiga yordam beradi. Xonalar kuyning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi, har bir xonaning o‘ziga xos ifodaviy kuchi kuyning tuzilishini boyitadi va badiiy estetik ta'sirni yanada chuqurlashtiradi. Shu bilan birga, ular nafaqat musiqa kompozitsiyasining bir qismi, balki ijrochilikda ham mahoratning alohida ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, Shashmaqom tizimining cholg‘u yo‘llarining tuzilishi va mazmuni, ularning boshqalarga ta'sirini kuchaytiradi. Maqomlarning har bir qismi o‘zining musiqiy ifodasini shakllantirgan holda, uning tizimdagi o‘rni va ahamiyatini belgilaydi. Har bir cholg‘u yo‘li, o‘zining shakli va mazmuni bilan, barcha boshqa qismlar bilan uyg‘unlikda ishlaydi, shu orqali butun bir maqomning estetik va musiqiy o‘ziga xosligini ta’minlaydi. Shunday qilib, Shashmaqomning cholg‘u yo‘llarining har biri o‘zining murakkab va puxta ishlangan tuzilishi bilan musiqaning barcha elementlarini yanada boyitadi va uyg‘unlashtiradi. Bu musiqaning ijro texnikasi, ifodasi va mazmuniga alohida ahamiyat beradi, uni yanada chuqurroq va boyroq qilishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI X-XVII asr musiqiy risolalarida doira usullarining keng qo‘llanilishi va ularning o‘ziga xos tuzilishini ko‘rish mumkin. Ushbu davrda doira usullari asosan qisqa va uzin bo‘g‘inlarning ifodasi sifatida ishlatilgan bo‘lib, bu bo‘g‘inlar undosh harflardan tuzilib, she’r o‘lchovlari va doira usullarini tashkil etgan. Bu usullar musiqaning o‘ziga xos ohang va ritmiga ta’sir ko‘rsatgan, shu bilan birga ularning ifodasi nafaqat musiqa, balki she’riyatda ham o‘z aksini topgan. Doira usullarida ishlatiladigan bo‘g‘inlarning turli xilligi, ayniqsa aruzdagi vaznlarni ham ifodalashga imkon bergan, bu esa musiqiy kompozitsiyaning ritmik tuzilishini aniq belgilagan.

O‘tgan davrda so‘nggi asrlarning musiqiy ijodkorlari, ba’zan aruz qoidalarini to‘liq tushunmay, "tan-tana-tanana-nan" kabi ritmik usullar bilan asosan ashula yo‘llariga mos keladigan she’rlarni tanlab olishgan. Bu usullar oddiy ravishda ikki undosh harf — "T" va "N" birikmasidan tashkil topgan, lekin bu so‘zlarning ma’nosi bo‘lmagan, faqat ritmik o‘yin uchun ishlatilgan. Masalan, "tan-tanatananan-tan-nananan" kabi takrorlanadigan struktura musiqiy kompozitsiyada o‘zining maxsus o‘rnini topgan. Bu

kabi usullar, musiqaning ritmik tuzilishini yaratishda va uning tabiiy oqimini ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Shu bilan birga, so'nggi davr musiqachilari, bu usullarni yangicha yondoshuv bilan o'zgartirib, turli harf va so'zlar orqali ifodalab kelganlar. Masalan, "tak-taka-tum", "taka-taka-tum", yoki "bak-bak-bum", "baka-bum" kabi yangi ritmik izchilliklar kiritilgan. Xorazm musiqiy tarixida, ayniqsa "taqtaqa-gup" shaklida keltirilgan bu turdagi usullar ritmik strukturaning qiziqarli va o'ziga xos ko'rinishini yaratgan.

Doira usullarining asosiy vazifasi, musiqada uzun va qisqa zarblarni aniq ifodalashdir. Ushbu usullar, musiqa va ashula yo'llarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. O'tmish musiqachilari, doira usullarini yozma va og'zaki tarzda tushuntirib, ularni amaliyotda qo'llaganlar. Doira usullarining musiqiy rivojlanishdagi o'rni nafaqat ularning ritmik tuzilishi bilan, balki maqom yo'llarining har bir qismida uyg'unlashgan elementlari bilan ham ahamiyatli bo'lgan.

Maqom qo'shiqlarining tarkibida doira usullari muhim rol o'ynaydi, chunki ular kuy va ashula yo'llarini o'ziga xos tarzda boyitadi va musiqiy kompozitsiyani rivojlantiradi. Doira usullarining turlicha ishlatilishi maqom tarkibidagi kuy va ashula variantlarini shakllantirishda hamda ularning ifodalashidagi farqlarni ochib berishda yordam beradi. Masalan, ba'zi maqomlarda otdosh sho'ba, masalan, "Talqini Ushshoq", "Nasri Ushshoq", yoki "Ufari Ushshoq" kabi turli xil doira usullari mavjud bo'lib, ularning har biri bir-biridan farq qiladi va ma'lum bir maqomning ritmik o'ziga xosligini yaratadi[2]. Bu farqlar musiqaning nozik va murakkab tuzilishini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR Yangi asrning dastlabki yillarida maqom ijrochiligi san'ati o'zining rivojlanishini davom ettirganini aytish mumkin. Shu bilan birga, musiqiy merosimizning uch asosiy yo'nalishi — xonandalik, sozandalik va bastakorlik — o'zgarishlar va rivojlanishlar bilan to'ldirilganini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayonlar musiqaning ijro etilishida yangi bosqichlarga olib keldi.

Avvalo, yosh avlodning maqom ijrochiligiga bo'lgan qiziqishi ortganligini ta'kidlash kerak. Bugungi kunda "ommaviy madaniyat"ning yoshlar orasida tobora kuchayib borayotgan ta'siri fonida, maqom ijrochiligiga bo'lgan qiziqish yangi darajaga ko'tarildi. Yosh ijrochilar orasida musiqaning an'anaviy shakllarini to'liq va maromiga yetkazib ijro etadigan vakillar paydo bo'ldi. Bu ijrochilar o'z faoliyatlari orqali nafaqat milliy musiqaning boy an'analari va madaniyatini saqlab qolishda muhim rol o'ynashmoqda, balki xalqimizga xizmat qilishda davom etmoqdalar. Ular o'z ijrolari bilan maqom san'atining yangilanishiga va uni avloddan-avlodga yetkazilishiga ko'maklashmoqda.

[2] Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макомы Т.,2006

Bundan tashqari, musiqiy ta’lim tizimida ham yangi yo’nalishlar va metodologiyalar paydo bo’ldi. Bu o’zgarishlar yosh avlodning musiqa san’atiga bo’lgan qiziqishini yanada kuchaytirib, ularning ijodiy va intellektual rivojlanishiga yordam bermoqda. Yangi uslublar, ta’lim dasturlari va ijro usullari orqali yoshlar maqom san’ati bilan chuqurroq tanishib, uning nafaqat estetik, balki ma’naviy ahamiyatini ham anglay boshladilar.

Shu tarzda, maqom ijrochiligi san’ati o’zining rivojlanish jarayonida bir qator ijobiy o’zgarishlarga guvoh bo‘lmoqda. Bu jarayonlar yosh avlodning musiqaga bo’lgan qiziqishining yanada kuchayishi va maqom san’atining yangi avlod tomonidan to‘liq va an’anaviy shakllarda ijro etilishiga olib kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR Hozirgi kunda o‘zbek musiqasining rivojlanishida o‘rnak bo‘lib kelgan san’atkorlarning ijodiy faoliyatlari katta e’tirofga sazovordir. Ularning musiqiy merosi va san’atga qo‘shgan hissalari xalqimiz uchun bebaho ahamiyatga ega. Shunga qaramay, har bir san’atkor o‘z faoliyatida zamonning talablariga moslashish jarayonida ba’zi cheklovlar va qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ayniqsa, yangi ijodiy asarlarni yaratish jarayonida o‘zbek musiqasining mumtoz an’analari bilan uyg‘unlashgan, tinglovchini o‘yga to‘ldiradigan va musiqaning chuqur mazmunini aks ettiruvchi asarlar soni yetarli darajada emas. Bugungi kunda yaratilayotgan musiqiy asarlar soni ko‘p bo‘lishiga qaramay, ulardan faqat bir qismi mumtoz musiqaning yuqori darajasiga yetib bormoqda. Shuning uchun yangi avlod ijodkorlariga hali ko‘p ishlar kutmoqda.

O‘zbek musiqasining rivojlanishini jahon miqyosida tan olingan, to‘laqonli va zamon talablariga mos qilish uchun, an’anaviy musiqiy merosni yangicha talqin qilib, zamonaviy o‘zgarishlarga moslashtirish zarur. Bu esa faqat musiqaning texnik jihatlarini yangilash bilan kifoyalanmay, balki uning ma’naviy va falsafiy asoslarini ham qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Musiqa faqat eshitish orqali qabul qilinmasligi kerak; uning har bir notasi, aks-sadosi insonning ichki dunyosiga ta’sir o‘tkazishi zarur. Shuning uchun yosh ijodkorlar musiqaning falsafiy va badiiy jihatlarini chuqur o‘rganib, ijodda qo‘llashlari lozim.

Bundan tashqari, musiqaning boshqa san’at turlari bilan integratsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Teatr, kino va boshqa ommaviy tadbirlarda mumtoz musiqa namunalarini ishlatish uning keng auditoriya tomonidan tushunilishi va qadrlanishiga olib keladi. Ayniqsa, milliy musiqamizni dunyoga tanitishning eng samarali yo‘li sifatli kinofilmlarda mumtoz musiqani ishlatish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu nafaqat ichki bozorga, balki xalqaro miqyosda ham musiqamizning tarqalishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi PrezidentininAg 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son “O’zbekiston Republikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to’g’risida”gi Farmoni.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi Qarori
3. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963
4. Rajabov Y. Shashmaqom, (I-VI); O‘bek xalq muzikasi.(I-V) Tos’hkent. 1965
5. Yunusov R. Sharq xalqlari maqomlari T.,2022
6. Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макомы Т.,2006
7. Zufarov A.M. The contribution of eastern alloms in the formation of the maqamlar veil system //Spanish journal of innovation and integrity impact factor- 7,985(63-65 bet.)
8. Zufarov A.M. Maqomlar asosida bastalangan asarlar: Saidjon Kalonovning “topmadim” asari misolida //Oriental Art and Culture jurnali ISSN 2181-063x scientific methodical journal volume 4 issue 5 / october 2023.